



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 avgust holatiga


2017 yilning 1 avgust holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14350 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 590 taga ko'pdir (4,3%).

Shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13883 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga ko'paygan hamda ularning soni 624 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 59 ta (11,2 %) ga kamaygan hamda ularning umumiy soni 467 tani tashkil etgan.


Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni 1149 taga etib, tugatilganlar soni 524 taga kamligi va ularning umumiy soni 691 ta ekanligi kuzatilmoqda.

## Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-iyul oylarida 1149 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,4 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (328 ta), Xiva tumani (182 ta), Urganch (131 ta) va Xonqa tumanlarida (99 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (30 ta), Bog'ot (35 ta) hamda Shovot (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat ( 297 ta), savdo (257 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (139 ta) va qurilish (105 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (34 ta) hamda tashish va saqlashda (49 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 47 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 38,2 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-iyul oylarida 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'radigan bo'lsak sanoatda – 5 ta, savdo, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2017 yil 1 avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11022 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 avgust holatiga qaraganda 6,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2778 tasi (25,2 %) Urganch shahriga, 2276 tasi (20,6 %) Xiva, 1142 tasi (10,4 %) Urganch tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11022 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3306 tasi (30,0 %) – savdoda, 2162 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1400 tasi (12,7 %) - qurilishda, 1047 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 744 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 525 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 215 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 211 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1412 tasi (12,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-iyul oylarida 1100 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 29,2 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (303 ta), Xiva (182 ta), Urganch tumanlarida (128 ta), tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (28 ta), Bog'ot (34 ta) hamda Shovot (40 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (296 ta), savdoda (257 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (138 ta) va qurilishda (105 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (34 ta), tashish va saqlashda (49 ta) hamda yashash va ovqatlanishda (92 ta) tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 avgust holatiga 792 tani tashkil etib, ulardan 768 tasi yoki 97,0 % faoliyat yuritadi.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**  
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona dav-  
lat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan